

**SENOPOPULYATSIYALAR. SENOPOPULYATSIYALARNING
O'SIMLIK YOSHIGA KO'RA TARKIBI.O'SIMLIKLAR QOPLAMI
DINAMIKASINING ASOSIY SHAKLLARI.**

Navoiy Innovatsiyalar
Universiteti
Biologiya ta'lim yo'nalishi 3-
kurs
talabasi Rajabboyeva Shahlo

Annotatsiya: Ushbu maqolada har xil jamoalarni tashkil qiluvchi har xil turlar doimo o'zaro va muhit bilan murakkab munosabatda bo'lishi, bunday munosabatlarni tushunish uchun o'simliklar qoplamiga tarixiy nuqtai nazardan yondashilishi zarur ekanligi ko'rib chiqiladi. Jamoani tashkil qiluvchi turlar bular tasodifan paydo bo'lgan yoki yig'ilib turgan turlar emas, balki ular ma'lim qonuniyatlar asosida jamoani tashkil qilishi va birgalikda hayot kechirishi kabi jarayonlar ko'rib chiqiladi. Ular minglab, millionlar yillab, ya'ni evolutsiya jarayonida bir birlariga va ular bilan muhitga moslashganliklari haqida ko'rib chiilib tahlil qilinadi. Bundan tashqari ushbu maqolada Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistondagi tog'li hududlarda, ayniqsa bahorgi seryog'in paytlarda surilmalar bo'lib turishi, bu aslida suksessiyani bir turi bo'lib, unga tabiiy ofat sabab bo'lishi, bunday surilma paytlarida dastlabki pioner o'simliklar ko'ka, qirqbo'g'im suv qalampiri o'sib chiqa boshlashi kabi jarayonlar ushbu maqolada tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: alleropatiya, dinamika, jamoa, mexanik, raqobat, tsenopopulyatsiya, sindinamika, tur, turlararo, parazitlik, simbiozlik, epifitlik.

ЦЕНОПУЛАЦИИ. СОСТАВ ЦЕНОПУЛАЦИИ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ВОЗРАСТА РАСТИТЕЛЬНОСТИ. ОСНОВНЫЕ ФОРМУЛЫ ДИНАМИКИ РАСТИТЕЛЬНОГО ПОКРЫТИЯ.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сложные взаимоотношения между различными видами, составляющими разные сообщества, и их окружающей средой, а также необходимость исторического подхода к изучению растительного покрова для понимания этих взаимосвязей. Виды, составляющие сообщество, — это не виды, появившиеся или собравшиеся случайно, а скорее процессы формирования сообщества и совместного существования на основе известных законов. Их анализируется с учетом того, как они адаптировались друг к другу и к окружающей среде на протяжении тысяч и миллионов лет, то есть в процессе эволюции. Кроме того, в статье анализируются процессы перемещения в горных регионах Центральной Азии, включая Узбекистан, особенно во время весенних сильных дождей, которые фактически представляют собой тип сукцессии, вызванной стихийным бедствием, а также процессы произрастания первых пионерных растений, таких как колокольчики и водяной перец, во время таких перемещений.

Ключевые слова: аллелропатия, динамика, сообщество, механизм, конкуренция, ксенопопуляция, синантропия, виды, межвидовой, паразитизм, симбиоз, эпифитность.

CENOPOPULATIONS. COMPOSITION OF CENOPOPULATIONS ACCORDING TO VEGETATION AGE. MAIN FORMATS OF VEGETATION COVER DYNAMICS.

Abstract: This article discusses the complex relationships between different species that make up different communities and their environment, and the need to approach the vegetation cover from a historical perspective to understand these

relationships. The species that make up the community are not species that have appeared or gathered by chance, but rather the processes of forming a community and living together based on known laws. They are analyzed by considering and analyzing how they have adapted to each other and the environment over thousands and millions of years, that is, during the process of evolution. In addition, this article analyzes the processes of displacement in the mountainous regions of Central Asia, including Uzbekistan, especially during spring heavy rainfall, which is actually a type of succession, caused by a natural disaster, and the processes of the first pioneer plants such as bluebells and water pepper growing during such displacements.

Keywords: allelopathy, dynamics, community, mechanism, competition, xenopopulation, synanthropy, species, interspecific, parasitism, symbiosis, epiphyticity.

Ma'lumki, har xil jamoalarni tashkil qiluvchi har xil turlar doimo o'zaro va muhit bilan murakkab munosabatda bo'ladi. Bunday munosabatlarni tushunish uchun ushbu o'simliklar qoplamiga tarixiy nuqtai nazardan yondashilishi zarur. Jamoani tashkil qiluvchi turlar bular tasodifan paydo bo'lgan yoki yig'ilib turgan turlar emas, balki ular ma'lim qonuniyatlar asosida jamoani tashkil qilishadi va birgalikda hayot kechiradi. Ular minglab, millionlar yillab, ya'ni evolutsiya jarayonida bir birlariga va ular bilan muhitga moslashganlar. Misol qalin daraxtlardan ekalogiya suktsessiya degan jarayonlar bor, qaysi u tirik jamoalardan iborat o'rmon, cho'l sahro kabi sistemalarni ma'lum vaxt ichida, hamda har xil sabablarga ko'ra, bir- birini almashtirib turilishi. Bunga ko'proq antropogen, texnogen sabablar hamda tabiiy kuchlar tufayli ular o'zgarib turishga moyil va majburdirlar. Suktsessiya jarayoniga edafik (tuproq), fitogen (o'simlik), va zoogen (hayvonlar) ta'sirotlari sabab bo'lishi mumkin. Markaziy

Osiyo, jumladan O'zbekistondagi tog'li hududlarda, ayniqsa bahorgi seryog'in paytlarda surilmalar bo'lib turadi. Bu aslida suktsessiya bir turi bo'lib, unga tabiiy ofat

sabab bo'ladi. Bunday surilma paytlarida dastlabki pioner o'simliklar ko'ka, qirqbo'g'im, suv qalampir o'sib chiqa boshlaydi. Yana bir ikki yil o'tgach boshqa, o'sha atrofdagi o'simliklar qoplamlarini tashkil qiluvchi turlar paydo bo'ladi, 3-4 yillardan keyin esa butalar (na'matak, chiya va boshqalar) paydo bo'ladi. Eng oxirida esa daraxtlar paydo bo'ladi. Demak ushbu surilma bo'lib, o'tgandan o'sha tabiiy o'simliklar qoplami 10-12 yillar chamasidan so'ng boshlanadi. Demak, ushbu fitotsenozni tiklanishida u albatta cheksiz, to'xtovsiz davom etsa ham, asosiy 3davrni kuzatamiz;

1. Bir turdan iborat va siyrak guruhdagi qoplami.
2. Qalin qoplam, qaysiki o'tchil har xil o'simliklardan iborat qoplami paydo bo'lishi.
3. Aralash turlardan iborat, ikki yarusli fitotsenoz.

Birinchi yarusda buta va ikkinchi yarusda o'tchil o'simliklar. Dastlabki jamoa siyrak holida o'simliklarni bir-birlariga bo'lgan ta'siri juda kuchsiz bo'ladi. Turlarni soni ko'payib, ular qalin bo'lib o'sa boshlagandan keyin ularni ta'siri bir-birlariga kuchli ravishda namoyon bo'la boshlaydi. Natijada mazkur taassurotlarga yaxshi bardosh bergan turgina saqlanib qoladi va u muhitga yaxshi moslashadi. Bu jarayonda tuproq qatlamidan ham sezilarli o'zgarishlar boshlanadi, o'simliklarning qoldig'i barg, novda kabilar tuproqqa tushib uni tarkibini, tuzilishini o'zgartira boshlaydi, natijada tuproqning yuqori qatlamida chirindi paydo bo'ladi. Tarkibi boyigan tuproq esa har xil turlarni o'sib rivojlanishiga imkon yaratib beradi. Bunday chirindiga boy tuproqlarda sodda fauna vakillari, chuvalchanglar va boshqalar paydo bo'ladi. Chuvalchanglar esa yanada tuproqning ekalogik holatini yaxshilaydi, va yanada boshqa turlarni o'sishiga omil bo'ladi. Suv ekosistemalarida ham tirik mavjudodlarni, jumladan o'simliklarni bir-birlariga doimiy va murakkab ta'sirotlarni yaqqol namoyon bo'la boshlaydi.

Orol dengizini qurib qolishidan ham har xil suktsession jarayonlarni ko'ramiz. Suv qurib qolgandan keyin ma'lim vaqtgacha botqoqlik hukm suradi. So'ngra o'ta sho'r muhitda esa oladigan sarzasan, klimokoptera, sho'ra kabi o'simliklar paydo bo'ladi. Dengiz tupidagi sjo'r tiproq atroq muhitga ta'sir etmoqda. Natijda dengizga

yaqin joylashgan hududlardagi tuproqlarni tarkibi buzlib, umumiy holatlarni yomonlashmoqda. O'tchil o'simliklarni va darxtni orasida ham har birlarini har xil taassurotlar mavjudligi, ularni bir so'z bilan yashash uchun kurash deb atash mumkin. O'simliklar qorong'ulikni talashib, quyosh tomon intiladi, bir-birlariga soya solib, ayrimlarini qoplashdan chiqarib ham yuboriladi. Qoplamdagi turlarni bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini V.N.Sukachov (1956) va A.A.Korchiganlat (1956). Bunday o'zaro munosabatlar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi. To'g'ridan to'g'riyoki

bevosita bo'lgan munosabatlar. 1. Parazitlik 2.Simbiozlik. 3. Allelopatiya. 4. Bioximik. 5. Mexanik tasurot. 6. Epifitlik. Bilvosita ta'sir etadigan munosabatlar: 1. Muhitni sodir etuvchi tasurotlar- harorat, namlik, yorug'lik, radiatsiya. 2. Raqobatlik. Bunda munosabatlar tabiatda ko'p uchrab turadi.- edifik, fitogen, zoogen.

O'simliklar jamoasidagi har qaysi tur ichidagi o'ziga kerakli suv, yorug'lik va mineral ozuqalarni o'zlashtirib, qo'shni turga tegishli moddalarni kamayishiga olib keladi. Shuning uchun ham tuproqda barcha o'simlik jamoalari uchun ozuqa moddalar zaxirasi yetishmaydi. Natijada ular o'rtasida yashash uchun raqobat paydo bo'ladi. Raqobat o'simlik jamoasidagi barcha turlar faoliyati uchun zarur bo'lgan ozuqa va boshqa sharoitlar yetishmaslik alomatlaridir. Turlararo va tur ichidagi raqobatlar doimo mavjud bo'lib ular o'zlarini ichida o'zaro ta'siriga asoslangandir. Bu esa qishloq xo'jaligidagi o'simliklar jamoasida yaqqol ko'rish mumkin. Masalan qalin ekilgan bug'doy va boshqa ekinlar yoshligida bir-biriga kam tasir qiladi. Voyaga yetaverish bilan yorug'lik, mineral ozuqalar hisobiga raqobat kuchaya boradi. Bunda ildiz sistemasi kuchsiz bo'lgan o'simliklar halokatga uchraguncha boradi. O'simliklarning yer osti qismlarining muhit hosil bo'lishida ham ahamiyati katta, chrigan ildizlar,tugunaklar atrofida g'ovaklarni hosil qilib, tuproq bilan o'simlik aloqadorligini yaxshilaydi. O'simliklar jamoasidagi turlar doimo yoki o'tkichi bo'ladi. Turlarning ustunligi uning mustahkamligiga bog'liq bo'ladi. Agarda tur mustahkam bo'lsa muhit ortiqcha ta'sir qilmasdi.Tur raqobatda ham ustun bo'lib o'saveradi. Turlarning

mustakhamligi uning ekologik va biologik xususiyatlariga bog'liqdir. Masalan, suli kasalliklarga chidamsiz, arpa esa chidamli. Agarda kasallik zamburug'lari yo'q joyda suli arpa bilan qo'shilib ekilsa albatta suli arpani o'sishiga salbiy ta'sir etadi. Ekologik muhit o'simliklarni o'sishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar turlar uzoq davr birgalikda raqobatlikda o'stirilsa ular o'rtasidagi doimiy aloqadorlik shakllanadi, kuchlisi kuchsizini doimo qiynab keladi. Kuchli turlar tasirida qiynalgan turlar alohida o'stirilsa tez o'sadi va yuqori hosil beradi. Raqobatlar turlararo va tur ichida bo'ladi. Tur ichida qalin ekilgan bug'doy va boshqa ekilgan yoshligida bir-birlariga kam ta'sir qiladi. Voyaga yetaverish bilan yorug'lik mineral ozuqalar hisobiga raqobat kuchaya boradi. Agar turlar uzoq davr birgalikda raqobatlikda o'stirilsa ular o'rtasidagi doimiy aloqadorlik shakllanib, kuchli tur kuchsiz turni doimiy qiynab keladi. Fitotsenozlarga turlarni xosligi yoki xos emasligi qarab Braun-Blanke turlarni quyidagi guruhlariga bo'ladi. Sodiqlik, bog'lik, erkin, tasodifiy. Sodiqlik turlarga turlar qaysiki ular faqatgina ma'lum tipdagi fitotsenozga xos lekin ular yakka yakka holda boshqa jamoalarda ham uchrashi mumkin. Bog'lik turlarga turlar qaysi ma'lum bir tipik fitotsenozni avval ko'rsa ham ayrim yoki yakka yakka holda boshqa jamoalarda ham uchrayveradi. Erkin turlarga daydi turlar bo'lib, ular alohida bir tipdagi fitotsenozlarga berkitilgan emas. Yoki erkin ravishda har xil jamoalarda ishtirok etaveradilar. Tasodifiy turlarga yot turlar qaysiki tasodifan ushbu fitotsenoz tarkibida uchraydi, yoki relikt tu

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. Ўзбекистон Республикасида атроф-муҳит ҳолати ва табиий ресурслардан фойдаланиш тугрисида Миллий маъруза. -Т.: Chinor ENK, 2002, 2006, 2008, 2012.**
- 2.Ўзбекистан экологик ҳаракати дастури. -Т., 2009.**
- 3.Атлас оценка состояния окружающей среды Узбекистана по экологическим индикаторам. -Т., 2008.**
- 4. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. -Т.: Фан, 1990.**

5. Абиркулов К.,Н., Ходжиматов А.Н., Ражабов Н.Р. Атроф-мухитни мухофаза килиш. -Т .: ТДИУ, 2004.
6. Абдуллаев АМ., Хакимов Н.Х., Ишмухамедов Л.А. Экономика природопользование. -Т .: ТГЭУ, 2006.
7. Абдиев А.Ч., Холлиев Ш.Б. Трансчегаравий сув ресурс-лари ва улар билан боғлиқ ижтимоий-иқтисодий экологик муаммолар // Узбекистонда атроф-мухитни мухофаза килиш-нинг долзарб масалалари. Самарканд, 2013, 195 -196-б.